



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ILMIY MAKTABI

DEMOGRAPHY

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

scientific electronic journal

2023 yil, 3-son

Volume 4, Issue 3, 2023



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI



LABORECONOMICS.UZ

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 3-2023

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

TOSHKENT-2023

Tahririyat Kengashi raisi:

(Chairman of the Editorial Board)

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:

(Members of the Editorial Board)

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.f.d., (PhD), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:

(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin): Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)

	INSON RESURLARINI BOSHQARISH	
S.B.G'oyipnazarov	<i>Mahalliy davlat hokimiyati organlarida inson resurslarini boshqarishning xalqaro tajribasi</i>	5-21
O.T.Astanakulov	<i>Davlat xizmatida xodimlar faoliyati samadorligini baholash</i>	22-35
M.A.Qayumova	<i>Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar motivatsiyasining muammolari va uning tahlili</i>	36-45
	MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI	
Z.D.Adilova	<i>Turistik xizmatlar bozorida bandlikni tartibga solish va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy usullari ...</i>	46-56
X.F.To'xtayeva		
M.M.Mirzakarimova	<i>O'zbekistonda mehnat bozori muammolari</i>	57-68
Sh.O.Olimjonova		
S.A.Otaqo'ziyeva	<i>O'zbekiston mehnat bozorida raqamli texnologiyalar mutaxassislariga talab va taklifni baholovchi mezonlar tizimi</i>	69-80
F.A.Doniyorova	<i>Aholi bandligini ta'minlashning yo'nalishlari (O'zbekiston Respublikasi misolida)</i>	81-88
	DEMOGRAFIYA	
R.I.Nurimbetov	<i>O'zbekistonning ayrim demografik masalalari va aholi bandligini manfaatdorlik indeksi asosida baholash</i>	89-101
A.M.Ismailov		
D.A.Abduxoliqova	<i>O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi demografik siyosati</i>	102-113
O.A.Nasretdinova		
	INSON KAPITALI	
S.E.Xolmuratov	<i>Пути совершенствования образовательной системы Республики Узбекистан путем применения «финского чуда»</i>	114-126
J.S.Xolmuratov		
N.B.Ulug'muradova	<i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitali rivojlanishini boshqarishni tashkiliy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash.....</i>	127-135
	TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH	
X.Sh.Kaxramonov	<i>Исследование факторов, воздействующих на эффективное управление жилищным фондом города</i>	136-146
D.A.Ishanxo'jayeva	<i>Модель государственно-частного партнерства в сфере туризма</i>	147-163
	MUNOSIB MEHNAT	
F.O'Masharipov	<i>Professional ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini raqamli texnologiyalar asosida monitoring qilish istiqbollari.....</i>	164-175



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz/>



TURISTIK XIZMATLAR BOZORIDA BANDLIKNI TARTIBGA SOLISH VA BOSHQARUV MEXANIZMLARINING ZAMONAVIY USULLARI

Adilova Zulfiya Djavdatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, i.f.d., professor

To'xtayeva Xurshida Farhodovna

Madaniy me'ros obyektlari muammolarini

o'rganish va turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot

instituti tayanch doktoranti

E-mail: t.hurshidaxon@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a22

Annotasiya. Ushbu maqolada turistik xizmatlar bozorida bandlikni tartibga solish va boshqaruvida aholining turizm sohasidagi bandlik ko'rsatkichlari, xorijiy mamlakatlardagi bandlik darajasi bo'yicha iqtisodiy tahlillar amalga oshirildi. Mavzu bo'yicha xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy yondashuvlari o'rganildi. Turizm sohasida bandlikni ta'minlashda zamonaviy usullarini ochib berishga harakat qilindi va uni qo'llash istiqbollari keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: aholi, farovonlik, ish bilan bandlik, sayohat, iste'mol, turizm, talab, taklif, rivojlanish, mamlakat, transport, turoperator, mehnat bozori, mehnat resurslari, sog'liqni saqlash, mehmonxona, iqtisodiyot.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ЗАНЯТОСТИ И МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ НА РЫНКЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ

Адилова Зульфия Джавдатовна

Профессор, Ташкентский государственный

экономический университет

Тухтаева Хуршида Фарходовна.

Базовая докторант Научно-исследовательский институт

по изучению проблемы объекта культурного

наследия и развитию системы

Аннотация. В данной статье проведен экономический анализ показателей занятости населения в сфере туризма, уровня занятости в зарубежных странах, в области регулирования и управления занятостью на рынке туристических услуг. По данной теме были изучены научно-теоретические подходы зарубежных ученых. Были предприняты усилия по выявлению современных методов обеспечения занятости в туристическом секторе и приведены перспективы их применения.

Ключевые слова: население, благосостояние, занятость ноу-хау, сайохат, потребление, туризм, спрос, предложение, развитие, страна, транспорт, тuroperator, рынок труда, трудовые ресурсы, здравоохранение, гостиница, экономика.

**MODERN METHODS OF EMPLOYMENT REGULATION AND
MANAGEMENT MECHANISMS IN THE TOURIST SERVICES MARKET**

Adilova Zulfiya Javdatovna

Professor of TSUE

Tukhtayeva Khurshida Farkhadovna

PhD student of Scientific-research institute

for the study of the problem of the object

of cultural heritage and development of the system

Abstract. This article carried out economic analysis on the indicators of employment of the population in the field of tourism, the level of employment in foreign countries in the regulation and management of employment in the tourist services market. Scientific-theoretical approaches of foreign scientists were studied on the topic. Efforts have been made to reveal modern methods of ensuring employment in the tourism sector, and prospects for its application have been cited.

Keywords: population, Well-Being, know-how employment, sayohat, consumption, tourism, demand, supply, Development, country, transport, tour operator, labor market, labor resources, health, hotel, economy.

Kirish

Turizm aholi farovonligining bir ko'rsatkichi bo'lib, yetarli to'lov qobiliyatiga ega talab bilan jadal rivojlanmoqda. UNWTO ekspertlari aholining farovonligi va turizmni rivojlantirish bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatdilar. Ularning fikricha umumiy real iste'molning o'sish sur'ati 1% ga o'sishi bilan turistik sayohatlar hajmi o'zgarishsiz qoldiradi; iste'mol omillarining 2,5% ga oshishi bilan sayohatlar soni 4% ga oshadi; iste'molning 5% ga oshishi bilan sayohat xarajatlari 10% ga oshadi va iste'mol o'sish sur'atlari bilan 1% ga tushishi, sayohatlar hajmi tushishiga olib kelishini ilmiy tadqiqotlardan aks ettirib ko'rsatishdi[1]. Ushbu turdagi faoliyatlar O'zbekistonda kichik shaharlarning rivojlanishiga va yangi sayyohlik va rekreasion resurslarni rivojlantirishga yordam beradi.

Turizmni rivojlantirishning asosiy xususiyatlaridan biri xalqaro turistik oqimlarning turli mintaqalar va mamlakatlarda notekis taqsimlanishidir. Turistik oqimlar dunyoning bir qancha mintaqalarida to'plangan, ularning harakati asosan mintaqaviy xarakterga ega. Asosan sayyohlik oqimlari Yevropa va Osiyoda to'plangan. Shu bilan birga, yangi dunyo mamlakatlarining sayyohlik almashinuvidagi roli ham ortib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Y.Liu, Y.Yao va D.X.F.Fanlar tadqiqot ishlarida sayyohlar nuqtai nazaridan boshqaruvni baholashda onlayn o'lchov shkalasini ishlab chiqishni taklif etadi va ko'p bosqichli aralash usullardan foydalangan holda uni ishlab chiqadi. Ushbu tahlillar orqali beshta o'lchov hosil bo'ladi: tartibga solish nazorati, reklamadagi haqiqat, turizm shartnomalariga rioya qilish, turizm shartnomalarini bajarish va sayohat haqida fikr-mulohazalarni qayta ishlashni taklif etadi. U bu orqali sayyohlar fikrini o'rgangan holda mamlakatda

turizmni rivojlantirish borasida dasturlar ishlab chiqish kerakligini aytib o'tgan[2].

A.Lyu va B.MakKerxyer turistlarning ma'lum hududlar orqali aniq davriy harakatlari va ularga ta'sir etuvchi omillarning turizm infratuzilmasini shakllantirish, turistik mahsulotlarni yaratish, turistik hududlarni rivojlantirish dasturlarini tayyorlash hamda yangi diqqatga sazovor joylarni qurish, shuningdek, ijtimoiy, ekologik va madaniy ta'sirini boshqarish jarayoniga oid jabhalarini ilmiy-nazariy tadqiq etganlar[3].

I.Romaniuk, ta'kidlashicha, turizmdagi zamonaviy boshqaruv usullari asosan ushbu sohaning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi, ular mustaqil ravishda ishlay olmaydi, lekin ko'plab tegishli sohalarga va o'zaro bog'liq faoliyat sohaslariga aloqadordir, xususan: mehmonxonalar va restoranlarni boshqarish, transport, ko'ngilochar infratuzilma, ixtisoslashgan marketing kompaniyalari, axborot va texnik yordam va boshqalar[4].

Y.Kyrylov va V.Yarovoy o'z tadqiqotlarida turizm sohasida bandlikni oshirish maqsadiga erishish uchun umumiy ilmiy va maxsus usullardan foydalanildi: qishloq yashil turizmi xizmatlarini davlat tomonidan tartibga solishning ilmiy tamoyillarini o'rganish, tahlil va sintez, statistik tahlil, taqqoslash va umumlashtirish-davlat tomonidan tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va qishloq yashil turizm xizmatlarini qo'llab-quvvatlash va qishloq yashil turizmini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining zamonaviy jihatlarini aniqlash, davlat boshqaruvi nazariyasini yanada chuqur ilmiy o'rganish, qishloq yashil turizm xizmatlarini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmini amalga oshirish bo'yicha konseptual qoidalar va chora-tadbirlarni takomillashtirish lozimligini keltirib o'tgan[5].

O.Liutak, boshqaruvda institusional o'zgarishlarning muhim jihati sifatida turizm bozorini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, bozor muvozanatini saqlash, milliy bozorning xalqaro turistik xizmatlar bozoriga kirib borishiga ko'maklashish, daromadlarni iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida taqsimlash, turizm inqirozining oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish lozimligini ko'rsatib beradi. Ushbu o'zgarishlarning natijasi turizmni rivojlantirish dinamikasini oshirish uchun huquqiy bazani yaratish, turistik xizmatlar iste'molchilari, sayyohlik kompaniyalari va agentliklari o'rtasida hamkorlik strategiyasini tashkil etish, turizm xizmatlari va turistik mahsulotlardan muvozanatli foydalanish, daromadlarni rivojlantirish va tabaqalashtirishni tartibga solish kabilarlarga ham befarq bo'lmaslikni talab qilidi. Tartibga solishda turistik xizmatlarni standartlashtirish va universallashtirish yondashuvlaridan foydalanish, turizm sohasini axborot bilan ta'minlashdan foydalanish asosida turizm faoliyati sohasidagi institusional o'zgarishlarni o'rganish, turizm xizmatlarini diversifikasiya qilish xalqaro institutlardan xavfsizlikni boshqarish tizimini ishlab chiqish, joriy etish va qo'llab-quvvatlashni talab qiladi[6].

O.V.Shumakova ichki turizm mahsulotiga bo'lgan talabni tahlil qildi. uning xalqaro darajaga ko'tarilishi. Tadqiqotning keyingi yo'nalishini boshqaruvda munosabatlarni rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini shakllantirish, jamoatchilik bilan aloqalar o'rnatish, har bir hududlarni institusional rivojlantirish va turizmga yo'naltirilgan mintaqaviy iqtisodiy komplekslarni bosqichma-bosqich ajratish uchun imkoniyatlar yaratish lozim [7] deb keltirgan.

A.Shaimerdenova tadqiqotlarida turizm sohasida boshqaruvning ekologik va ijtimoiy talablarga muvofiqligi, tabiatga mas'uliyat, ta'lim funksiyasi va mahalliy jamoalarga g'amxo'rlik qilishni birlashtirgan ekoturizmni rivojlantirishga bo'lgan qiziqishning ortirish bilan bog'liq boshqaruv usullarini taklif etgan. Sayyohlar oqimining ko'payishi tabiiy tizimlarning ekologik holatiga ta'sir qilishi, shuning uchun antropogen yukni kamaytirish yo'llarini izlagan. Iqtisodiy o'zgarishlar va urbanizasiya jadal amalga oshirilayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarda yer masalalari va ularning turizm bilan aloqalariga alohida e'tibor qaratish kerakligini aytib o'tgan. Qishloq xo'jaligi yerlarini turizm va qo'riqlanadigan hududlarda foydalanish uchun berish yerdan foydalanish va boshqarish bilan bog'liq masalalarni o'rgangan[8].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishida keyingi yillarda respublikamiz iqtisodiyotining transformasiyalashuvi jarayonlari hamda jahonda yuz berayotgan turli salbiy iqtisodiy o'zgarishlar, turizm sohasini kompleks rivojlantirish, turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishning obyektiv zarurati va ahamiyati o'rganilib, mazkur yo'nalish bo'yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining fikrlariga tayangan holda analiz va sintez, kuzatish, guruhlash, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, rasmiy-mantiqiy, operatsiyalarni tadqiq etish, statistika va iqtisodiy tahlil kabi usullar orqali turizm sohasida bandlikni ta'minlashni boshqarishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash usuli taklif etilgan. Shuningdek, hududlarda turizm obyektlari faoliyatini samarali tashkil etish, turizm infratuzilmalarini oqilona rivojlantirish va sifatli kadrlarni tayyorlash hamda ularning bandligini rahbatlantirish, turizm sanoati rivojlanishini qo'llab-quvvatlash darajalari bo'yicha omillariga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar

Hozirgi vaqtda quyidagi nisbatlar kuzatilmoqda: ommaviy yoki guruhli sayyohlar umumiy sayyohlar sonining 20-30 foizini tashkil qilyapti, qolgan 70-80% yaqin mamlakatlarga sayohat qilayotgan individual sayyohlardir. Ushbu nisbat so'nggi yillarda ommaviy turizm foydasiga o'zgarib bormoqda, buning sabablari quyidagilar[9]:

- ketma-ket ta'til kunlari sonini ko'paytirish va shu bilan birga ta'til chastotasini oshirish;
- havo transportining past narxi;
- ustavlar sonining ko'payishi;

- turoperatorlarning ommaviy turizmga qiziqishi ortishi;
- katta afzalliklarga ega yangi yo'nalishlarni qidirish;
- ommaviy turizmda ish o'rinlari sonining ko'payishi;
- avtobusda sayohat qilayotgan sayyohlar sonining ko'payishi.

Rekreasion sayohatlar hajmi biznes turizmi hajmiga nisbatan dinamik ravishda o'sib bormoqda. Agar 2000-yillarida xalqaro turizm bozorida biznes segmenti ustunlik qilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda bu nisbat rekreasion turizmga nisbatan o'zgargan: sayyohlarning 60% dam olish uchun va atigi 40% biznes maqsadlarida sayohat qilishadi[10]. Taxmin qilish mumkinki, biznes turizmi umuman jahon turizmi uchun muhim bo'lishiga qaramay, turizmni rivojlantirish asosan dam olish maqsadida sayohatchilar sonini ko'paytirish orqali amalga oshiriladi.

Turizmda mehnat bozorida bandlikni ta'minlashda boshqaruv jarayoniga quyidagi omillar ham ta'sir qiladi:

- mamlakatdagi demografik vaziyat;
- globallashtirish va urbanizatsiya;
- xalqaro mehnat bozoriga integratsiya;
- mehnat resurslarining sifati;
- bo'sh va ish vaqti balansi;
- mehnat resurslarining harakatchanligi;
- ichki mehnat bozorini davlat tomonidan himoya qilish darajasi;
- aholining bandlik darajasi;
- mehnat bozorida jinsi, yoshi, maoshi, dini, partiyaga mansubligi va hokazolar bo'yicha kamsitishlarning yo'qligi;
- iqtisodiy faol aholi soni;
- soliq yukining og'irligi va boshqalar.

Yuqoridagi omillarga asoslanib, turizmda mehnat bozorining hozirgi holatini ko'rishimiz mumkin[10]:

- mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish zarurati tufayli ushbu bozorda “jonli” mehnatning yuqori ulushi mavjud;
- turistik mahsulotni shakllantirish, targ'ib qilish va realizatsiya qilish texnologiyasi bir vaqtning o'zida ko'plab professional jamoalarning ishtirokini talab qiladi bu esa ko'plab mehnat resurslarini bandligiga olib keladi;
- turizmning tashkiliy va texnologik xususiyatlari 400 ga yaqin turli kasblarning ishtirokini talab qiladi;
- turizmda mehnat bozorida ayollarning katta qismi mavjud;
- ushbu bozor turistik xodimlarning daromadlarining past darajasi va ularning sezilarli aylanmasi bilan tavsiflanadi;
- turizmda mehnat bozorining barcha darajalarida o'rta va quyi darajadagi ishchilar yetishmasligi va ma'muriy xodimlarning ko'pligi mavjud;
- ushbu bozorda ba'zi hollarda xodimlarga qo'shimcha aniq talablar qo'yiladi: chet tillarini bilish, normativ-huquqiy hujjatlar, psixologiya, xushmuomalalik, harakatchanlik va boshqalar.

Turizmda mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlarini obyektiv baholashga ishonchli va tezkor turistik statistikaning yo'qligi, ushbu bozorning yuqori dinamikasi va harakatchanligi, shuningdek, ichki va UNWTO tomonidan tavsiya etilgan milliy hisoblar va ta'riflar o'rtasidagi nomuvofiqlik to'sqinlik qilmoqda.

Bundan tashqari, turizm iqtisodiyotning turli tarmoqlari bilan uzviy aloqadorlikda bo'ladi: madaniyat, transport, sog'liqni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va boshqalar.

Mehnat bozori ko'rsatkichlarini obyektiv baholash iqtisodiyotning qo'shni (tegishli) tarmoqlarida bilvosita bandlikni multiplikativ hisobga olishning yo'qligi bilan ham murakkablashadi.

UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, bir sayyohning qolishi uchun unga to'qqiz nafar kishi xizmat ko'rsatishda band bo'lishi kerakligini ko'rib chiqishadi va bu zamonaviy boshqaruv usullari sifatida turizmni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda turizm sohasi dunyosida, bitta manbaga ko'ra, har o'n beshinchi xodim, boshqa manbalarga ko'ra — har o'ninchi xodim ishlaydi[11].

Turizm sohasida bandlik darajasi turli mamlakatlarda juda farq qiladi. Turizm asosiy daromad manbai bo'lgan, bandlikning barcha turlarining 30-50 foiziga yetgan mamlakatlar uchun bu juda muhimdir. Bu yirik rivojlangan mamlakatlarga ham, rivojlanayotgan mamlakatlarga ham tegishli.

AQSh turizm sanoatida avtomobilsozlik, elektronika, to'qimachilik va qishloq xo'jaligi sohasiga qaraganda ko'proq odamlar ishlaydi. AQShda turizm sog'liqni saqlashdan keyin ikkinchi ish beruvchi o'rinini egallaydi va 6,6 mln. kishi to'g'ridan-to'g'ri va 8,9 mln. kishi bilvosita ish o'rinlari orqali turizm bilan shug'ullanadi. Bu yerda turizmdan keladigan umumiy daromad hajmi yiliga 175 milliard dollarga yetadi[12].

1-jadval

Mehmonxonalar va restoranlardagi xodimlarning umumiy sonining ulushi, %[14]

Mamlakat	Erkaklar	Ayollar
Avstriya	38,7	61,3
Belgiya	46,7	53,3
Finlyandiya	24,0	76,0
Germaniya	43,2	56,8
Niderlandiya	55,2	44,8
Shvesiya	37,8	62,2
Buyuk Britaniya	40,1	59,9
Kanada	41,7	58,3
Avstraliya	39,4	60,6

Germaniyada turizm sanoatida 2,3 mln. kishi ishlaydi (umumiy bandlikning 10%), bu mashinasozlik, po'lat ishlab chiqarish va savdo sohasidagi ish o'rinlari soniga teng. Shveysariyada turizmga band bo'lganlar soni taxminan 300 ming kishini yoki barcha xodimlarning 8,2 foizini tashkil

qiladi. Ispaniyada, turizm bandlik 1 mln. 400 ming kishi, yoki umumiy bandlikning 9,1% ni tashkil qiladi[13].

UNWTO statistik ma’lumotlariga ko’ra, ushbu sohada ishlaydiganlarning yarmidan ko’pi mehmonxona sanoatida ishlaydi. Bandlik tarkibida turizm sohasidagi ish o’rinlarining 60% dan ortig’ini ayollar egallaydi.

JST ma’lumotlariga ko’ra, 2021-yilda mamlakatlarda mehmonxonalar va restoranlardagi xodimlar umumiy sonidagi erkaklarning ulushi ayollarning ulushidan past darajani ko’rsatmoqda (1-jadval).

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma’lumotlariga ko’ra, 2021-yilda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida turizm sohasida bandlik keng doirada o’zgarib turgan (2-jadval).

2-jadval

Rivojlangan mamlakatlarida turizm sohasida bandlik darajasi[14]

Mamlakat	Turizmning umumiy bandlikdagi ulushi, %			Turizmda bandlik, ming kishi		
	to’g’ridan- to’g’ri	bilvosita	jami	to’g’ridan- to’g’ri	bilvosita	jami
Gresiya	10,0	6,1	3,9	360	220	140
Ispaniya	9,1	5,4	3,7	1 380	823	557
Shveysariya	8,2	5,7	2,5	293	205	89
Italiya	7,7	4,8	2,9	1 722	1 063	659
Fransiya	4,8	3,6	1,2	1 200	895	305
Germaniya	10,0	-	-	2 300	-	-
Avstraliya	6,0	-	-	458	-	-
Yaponiya	1,6	-	-	990	-	-
AQSh	10,3	4,1	6,2	15 500	6 600	8 900
Avstriya	-	13,9	-	586	-	-
Kanada	-	9,0	9,0	-	1967	-
Turkiya	-	-	-	800	-	-

Xuddi shu manbaga ko’ra, turar joy va umumiy ovqatlanish korxonalarida bandlik jadvalda keltirilgan (3-jadval).

Iqtisodiyotning rivojlanishi aholining turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi va bu, o’z navbatida, turistik harakatchanlikni va turizmning intensivligini rag’batlantiradi. Turizmning rivojlanishi boshqa omillar bilan ham belgilanadi[10]:

- mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy barqarorlik;
- milliy siyosat va millatlararo munosabatlar;
- xalqaro turistik bozor kon’yunkturasi;
- turizmni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash darajasi;
- turizmning moddiy bazasining holati;
- turizm sanoatining investision jozibadorligi;
- oqilona narx siyosati;
- turizmning xalqaro turizm bozoriga integrasiyasi;
- aholining demografik va ijtimoiy tuzilishi;

- turistik sayohat xavfsizligi;
- yuqori malakali kadrlar mavjudligi;
- turizmda mehnat bozorining holati;
- milliy an’analar va boshqalar.

3-jadval

Turar joy va umumiy ovqatlanish korxonalarida bandlik darajasi[14]

Mamlakat	Jami ish bilan band		Korxonalarda ish bilan band			
			joylashtirish		iste'mol	
	kishi	umumiy bandlik %	kishi	umumiy bandlik %	kishi	umumiy bandlik %
Germaniya	952 200	2,7	-	-	-	-
Kanada	825 500	6,2	166 300	1,3	659 200	5,0
Meksika	738 223	3,2	151 445	0,7	586 778	2,5
Ispaniya	707 800	6,0	-	-	-	-
Buyuk Britaniya	616 400	2,4	312 600	1,2	303 800	1,2
Fransiya	428 731	2,0	156 106	0,7	272 625	1,3
Avstraliya	347 400	4,5	78 600	1,0	268 800	3,5
Portugaliya	197 100	4,4	-	-	-	-
Niderlandiya	168 000	2,6	49 000	0,8	119 000	1,8
Finlandiya	58 000	2,9	15 000	0,7	43 000	2,1

Iqtisodiyotning rivojlanishi aholining turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi va bu, o'z navbatida, turistik harakatchanlikni va turizmning intensivligini rag'batlantiradi. Turizmning rivojlanishi boshqa omillar bilan ham belgilanadi[10]:

- mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy barqarorlik;
- milliy siyosat va millatlararo munosabatlar;
- xalqaro turistik bozor kon'yunkturasi;
- turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasi;
- turizmning moddiy bazasining holati;
- turizm sanoatining investision jozibadorligi;
- oqilona narx siyosati;
- turizmning xalqaro turizm bozoriga integrasiyasi;
- aholining demografik va ijtimoiy tuzilishi;
- turistik sayohat xavfsizligi;
- yuqori malakali kadrlar mavjudligi;
- turizmda mehnat bozorining holati;
- milliy an’analar va boshqalar.

Turizmning rivojlanishi nafaqat yuqoridagi omillar, balki bashorat qilish qiyin yoki amalda imkonsiz bo'lgan fors-major holatlari, tabiiy va texnogen ofatlar bilan ham belgilanadi.

Turizmni rivojlantirish uning boshqaruvini zamonaviy jihatlaridan ya'ni ijtimoiy jihatlaridan biri bu turizm sohasida yangi ish o'rinlarini yaratishdir.

Mehnat bozori va turizm sohasidagi bandlikning hozirgi holatini ishonchli baholash, uning zamonaviy boshqaruv usullaridan qay darajada foydalanish mumkinligini ko'rsatuvchi asos bo'lib xizmat qiladi. Mehnat resurslarini rivojlantirish rejalari va turizm xodimlariga bo'lgan ehtiyoj, mintaqaviy va shahar dasturlari orqali sohaning o'zi rivojlanish istiqbollari bilan aniq bog'liq bo'lishi kerak. Ushbu rejalar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida ularning ajralmas qismi va bandlik siyosatining ajralmas qismi bo'lishi kerak.

Boshqaruvning zamonaviy usullari sifatida quyidagilarni ham hisobga olish kerak[10]:

- turizm tuzilmasini tashkil etuvchi korxonalarda kadrlarga bo'lgan ehtiyoj (turizmni tashkil etish korxonalari, turar joy, umumiy ovqatlanish, transport va ekskursiya xizmatlari korxonalari);
- har xil turdagi har bir kasbga ehtiyoj;
- malaka va ta'lim darajalariga ehtiyoj;
- boshqaruv apparatida mutaxassislariga ehtiyoj;
- yarim kunlik ishchilarga ehtiyoj;
- chet tillarini biladigan mutaxassislariga ehtiyoj;
- malakali xorijiy mutaxassislariga ehtiyoj;
- informatika va kommunikasiyalar bo'yicha mutaxassislariga ehtiyoj;
- IT hodimlariga bo'lgan ehtiyoj;
- Ommaviy axborot vositalari bilan ishlay oladigan marketologlarga ehtiyoj va boshqalar.

Shu bilan birgan turizm faoliyatini boshqaruvda bir necha zamonaviy modellardan foydalanish mumkin[15]:

1. “Inisiativ turoperator modeli” Sayohat, potensial turistning doimiy yashash joyida faoliyat ko'rsatadigan inisiativ turoperator bilan u amalga oshadigan hududda joylashgan reseptiv turoperator hamkorligida to'la uyushtirilib, mehmonxona, transport, gid, restoran va boshqa xizmatlarni o'ziga qamrab olgan turistik paket shaklida, yagona narxda sotiladi.

2. “Reseptiv turoperator modeli”. Sayohat, qabul qiluvchi turistik hududda faoliyat ko'rsatadigan reseptiv turoperator tomonidan to'la yoki qisman, masofaviy uyushtiriladi hamda kamida 3 ta xizmat, masalan viza olishda ko'maklashish, mehmonxona, transport kabilarni turistik paket shaklida yagona narxda sotishni ko'zda tutadi.

3. “Bronlash tizimlari modeli”. Zamonaviy turistlar mamlakatimizga o'z sayohatlarini mustaqil tashkil qilib, avia va temir yo'l chiptalarini, yo'l transporti, mehmonxona, restoran va gid xizmatlarini bronlashning global tizimlari (booking.com, trivago.com, needguide.ru) yoki mahalliy tizimlari, ya'ni turistik xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlarning shaxsiy veb saytlari (etisket.uzrailway.uz) orqali sotib oladilar.

4. “Turistik portal modeli”. Ushbu model turistik hududni destinasiya sifatida boshqarish konsepsiyasiga asoslanib joriy qilingan milliy, mintaqaviy va mahalliy ko'lamdagi marketing boshqaruv organlari tomonidan yaratilgan

turistik portallar orqali turistik oqimni shakllantirishni nazarda tutadi. Turizm sohasini turli ko'lamda boshqarish jarayonida innovasion usullarni qo'llash, sayyohlarni jalb qilishda ichki resurslarga tayanish, sohadan keladigan daromadning asosiy qismini milliy ko'lamda o'zlashtirishga erishilishi, qo'shilgan qiymat zanjirlarining barcha bo'g'inlarida turizm bozorining mahalliy subyektlari qatnashishi bilan boshqalaridan farqlanadi. Ya'ni, turizm o'ta rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'z turistik salohiyatlarini milliy, mintaqaviy yoki mahalliy ko'lamdagi turistik portallarni yaratish hamda ular orqali potensial turistlarga sayohatni mustaqil uyushtirish imkoniyatini berishni ko'zda tutadi.

5. Mahalliy turagent modeli. Sayohatni mustaqil uyushtirib, ma'lum turistik joylarda uzoq muddat qolishni afzal ko'rgan tashrif buyuruvchilar kategoriyasi (qarindoshlarinikiga kelgan mehmonlar, shaxsiy uymashinalarda kelgan oilalar, bir tarixiy shaharda 3 kundan ziyod qolishga qaror qilgan kishilar) 3 soatdan 10 soatgacha davom etadigan minipaketlarni tashrif buyurgan turistik hududlarida faoliyat ko'rsatadigan turagentlar orqali sotib olishga moyil bo'ladilar. Ushbu xizmat turi Misr, Tayland, Singapur, Turkiya, AQSh va boshqa turizm o'ta rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan bo'lib, ular "Destinasion menejment kompaniya"lari deb ataladi. Ushbu modelga binoan, mijozlar xohishiga ko'ra odatda ko'p davom etmaydigan turistik mini paketlar sifatida sayohat amalga oshayotgan hududda faoliyat ko'rsatadigan mahalliy turagentlardan sotib olinib, makro ko'lamdagi turoperatorlar tomonidan taklif etilmaydigan turistik yo'nalishlardir.

Xulosa va takliflar

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimizda turizm faoliyatini rivojlantirish, sohada bandlikni ko'paytirish borasida yetarlicha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, ulardan to'g'ri foylanish orqali sohani rivojlantirish imkoniyati mavjud. Qo'yidagi taklif va tavsiyalarni soha rivojlanishi uchun qo'llash soha rivojiga yanada katta hissa qo'shgan bo'lar edi:

- soha vakillari daromadini oshirish maqsadida turizm sohasida ishlaydiganlar uchun soliq imtiyozlari berish;
- turizmda ishlaydiganlar orasida ayollar ulushining yuqoriligini hisobga olgan holda ta'lim olishda davlat grantlarini ajratish;
- turizm sohasida IT hodimlarini o'qitish orqali yangi kasblarni yaratish;
- boshqaruvda modellardan foydalanish;
- turistik mahsulotni shakllantirish, targ'ib qilish va realizasiya qilish uchun OAV (radio, televideniya) orqali bepul e'lon berish tartibini ishlab chiqish;
- turistik oqimni oshirish maqsadida respublikaning tur kartasini ishlab chiqish;
- turistlarni jalb etish uchun raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turistik manzillarning 3D modelini ishlab chiqish;

– boshqaruvni yanada samarali qilish maqsadida xususiy tur-firmalar sonini yanada oshirish va rahbatlantirish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.unwto.org/unwto-2022-a-year-review>
2. Liu Y., Yao Y., Fan D. X. F. Evaluating tourism market regulation from tourists' perspective: Scale development and validation //Journal of Travel Research. – 2020. – T. 59. – №. 6. – S. 975-992.
3. Lew A, McKersher B, 2006. Modeling tourist movements a local destination analysis. Annals of Tourism Research, 33(2): 403–423. doi: 10.1016/j.annals.2005.12.002.
4. Romaniuk I., Riven A., Ralimaka D. Directions of implementation of innovations in the development of tourism activities. – 2020.
5. Kyrylov, Y., & Yarovoy, V. (2018). State regulation and support of tourism services in the rural regions in accordance with European requirements. Baltic Journal of Economic Studies, 4(4), 188-193. <https://doi.org/10.30525/2256-0742/2018-4-4-188-193>
6. Liutak O., Sherurda H., Voitovysh S. Features of institutional change in the context of accounting standardization and universalization of the regulatory mechanism for international tourist activities //Baltic journal of economic studies. – 2018. – T. 4. – №. 2. – S. 119-125.
7. Shumakova O. V. et al. Methodology for Assessing the Consumption of Tourism Services in Regional Markets //Journal of Environmental Management and Tourism (JEMT). – 2018. – T. 9. – №. 06 (30). – S. 1244-1255.
8. Shaimerdenova A. et al. Land Areas Management for Development of Tourism Different Types //Journal of Environmental Management & Tourism. – 2023. – T. 14. – №. 4. – S. 1962-1971.
9. https://vuzlit.com/234048/zarubezhnyy_oryt_sfere_turizma
10. Muallif tomonidan ilmiy izlanishlar natijasida ishlab chiqildi
11. https://vuzlit.com/234048/zarubezhnyy_oryt_sfere_turizma
12. <https://www.dreambigtravelfarblog.com/blog/us-travel-tourism-statistics>
13. <https://www.unwto.org/tourism-data/global-and-regional-tourism-performance>
14. <https://www.unwto.org/tourism-data/global-and-regional-tourism-performance>
15. Ibragimov, N.S. Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari / monografiya / N.S. Ibragimov. - Buxoro : "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 204 b.



Tashkent state university of economics

+998 99 881 86 98

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz